XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA TUMAN KENGASHI

QARORI

2024 - yil 27 - fevral VI-79-16-11-163-K/24 Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumanda 2024-yilda aholi bandligini ta’minlash dasturini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 09-yanvar kungi PQ 7-sonli qarorining 12-bandiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimlari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatgichlarni ishlab chiqish, ularning Qoraqalpog‘iston respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, halq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlarida muxokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarni qabul qilinishini ta’minlanishi belgilab berildi.

Farg‘ona tumanida **2024 yil** uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, viloyat bo‘yicha **20 537 nafar** aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

2024 yilda barcha yo‘nalishlarda **20 537 ta,** shundan **5 499 ta**si doimiy, **12 376 ta**si mavsumiy hamda **2 662 ta**si vaqtinchalik hisobiga yaratiladi. Joriy yilda yaratiladigan ishchi o‘rinlarini choraklik va oylik prognoz ko‘rsatkichlari tarmoqlar kesimida ishlab chiqildi. **Jumladan;**

Investisiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 1 206 ta shundan, **230 ta**si tarmoq investisiya loyihalari hisobiga va **1 030 ta**si hududiy investisiya loyihalarni ishga tushirilishi hisobiga yaratiladi.

Shuningdek Yirik (tarmoq) investisiya loyihalarni ishga tushurish hisobiga sanoat yo‘nalishida 200 ta, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida 30 ta jami 230 ta ish, xududiy investisiya loyihalarni ishga tushurish xisobiga sanoat yo‘nalishida 480

ta, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida 434 ta, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida 116 ta jami 1030 ta ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga jami 4800 ta, shundan, **2543 ta** doimiy, **2257 ta** vaqtinchalik hisobiga yaratiladi. **Jumladan;**

- Xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari hisobiga (yuridik va YATTlardagi yangi ish o‘rni), **1200 ta,** Xizmatlar sohasida o‘zini-o‘zi band qilish hisobiga **2600 mingta,** Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish hisobiga **1000** tani tashkil etadi. **Bunda,**

- **20 ta** Qishloq xo‘jaligi xizmatlari ko‘rsatish hisobiga,

- **110 ta** Mehmonxona va turizm xizmatlari ko‘rsatish hisobiga,

- **120 ta** Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish hisobiga,

- **80 ta** Sog‘liqni saqlash yo‘nalishida xizmatlar ko‘rsatish hisobiga,

- **80 ta** Umumiy ovqatlanish sohasidagi xizmatlar ko‘rsatish hisobiga,

- **320 ta** Savdo xizmatlari hisobiga,

- **250 ta** Maishiy xizmatlar ko‘rsatish hisobiga,

- **220 ta** Xizmatlar sohasini boshqa yo‘nalishlari hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasida jami **13862 ta** shundan, **1486 ta** doimiy, **12376 ta** mavsumiy va **448 ta** Agro klasterlarda yaratiladi.

Shundan, 2312 ta fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalarida, **1152 ta** dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish hisobiga, **823 ta** takroriy ekin va g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarida, **1037 ta** tomorqa xizmatida, **7870 ta** pillachilikda, **220 ta** Suv xo‘jaligi ob’yektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan yaratiladi.

Qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish hisobiga jami 615 ta, shundan, **210 ta** doimiy, **405 ta** vaqtinchalik hisobiga yaratiladi. **Jumladan;**

- Qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishda

- 470 ta Uy-joy qurilishi hisobiga**;**

- 70 ta Sanaot korxonalar qurilishi hisobiga**;**

- 43 ta Ijtimoiy ob’yektlar qurilishi hisobiga,

- **32 ta** Avtomobil va temir yo‘l qurilishi hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yuqoridagi bayon etilganlar, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar ijrosi yuzasidan deputatlarning takliflarining inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i v.v.b. N.Sobirovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Quyidagilar:

- 2024 yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

- 2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish

hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari ko‘rsatkichlari 2-ilovaga;

- 2024 yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga;

- 2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari 4-ilovaga;

- 2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari 5-ilovaga;

- 2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari 6-ilovaga;
- 2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari

7-ilovaga;

- 2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari 8-ilovaga;
- Farg‘ona tumanida 2024 yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida tasdiqlanishi 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari yo‘nalishlar kesimida korxona va tashkilotlar tomonidan yaratilgan yangi ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Yagona mehnat milliy tizimi” IDAKda aks ettirilishini nazorat qilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (A.Yusupov), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sharopov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (D.Xomidov) tegishli bo‘limlar bilan birgalikda tumanda aholi bandligini ta’minlash dasturida belgilangan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini;

- aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha har bir yo‘nalish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni to‘liq bajarilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi hududda 2024-yilda yaratilishi zarur bo‘lganish o‘rinlarini reja ko‘rsatkichlarini tuman Kengashida tasdiqlanishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari:

aholiga doimiy daromad manbasini yaratish, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni band qilish, mavsumiy va vaqtinchalik ishlar bilan band bo‘lgan aholini yil davomida ishlashiga sharoit yaratib berish;

paxta va g‘alladan bo‘shagan maydonlarni ijara asosida auksion savdolari orqali aholiga doimiy va mavsumiy daromad olishi uchun ajratish;

ishsizlik yuqori bo‘lgan mahallalar uchun mikromarkazlar tashkil qilish, ularda tadbirkorlikni amalga oshirishga imkoniyat yaratish;

ko‘ngilochar markaziy ko‘chalar hamda mahallalarda savdo-xizmat ko‘chalarini ishga tushirish orqali ish o‘rinlari yaratish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, saralash va qayta ishlash bo‘yicha sanoat loyihalarida hamda pillachilik sohasida aholi bandligini ta’minlash;

avtomobil yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘sh yer maydonlarini, ko‘chma savdo shoxobchalari uchun yerlarni auksionga chiqarish orqali servis sohasida ish

o‘rinlari yaratish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish choralarini ko‘rsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturi parametrlarini bajarilishi ustidan muntazam ravishda jamoatchilik nazoratini o‘rnatib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining bo‘yicha o‘rinbosarlari, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi barcha doimiy komissiyalar raislari zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi raisi **X.Inomov**

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024 yilda aholini doimiy mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:			sohalar kesimida:											
						Investisiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga	shundan:		Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga	shundan:		Qishloq xo‘jaligida	shundan:		Qurilish sohasida	shundan:	
			Doimiy	Mavsumiy	Vaqtinchalik		Yirik (tarmoq) investisiya loyihalari	Xududiy investisiya loyihalari		Doimiy	Vaqtinchalik		Doimiy	Mavsumiy		Doimiy	Vaqtinchalik
1	Farg‘ona tumani	**20 537**	5 499	12 376	2 662	**1 260**	*230*	*1 030*	**4 800**	**2 543**	*2 257*	**13 862**	*1 486*	*12 376*	*615*	*210*	*405*

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI	*jumladan:*							
			Yirik *(tarmoq)* investisiya loyihalari	*shundan:*			Xududiy investisiya loyihalari	*shundan:*		
				Sanoatda	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*		*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*
1	Farg‘ona tumani	**1 260**	**230**	*200*		*30*	**1 030**	*480*	*434*	*116*

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
3-ilova

2024 yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		Jumladan:		jumladan: shundan:																				Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish	Jumladan:		Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish
			Doimiy	vaqtinchalik	Xizmat ko‘rsatuvchi sub’yektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari (yuridik va YATTlardagi yangi ish o‘rni)	Doimiy	vaqtinchalik	Moliyaviy xizmatlar	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Transport xizmatlari	Qishloq xo‘jaligi xizmatlari sohasida	Mehmonxona va turizm xizmatlari	Ijtimoiy sohalar		Umumiy oziqlanish	shundan:		Savdo	shundan:		Maishiy xizmatlar	shundan:		Boshqa xizmat ko‘rsatish	shundan:			Doimiy	Mavsumiy	
													Ta’lim xizmatlari	Sog‘liqni saqlash xizmatlari		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik				
1	Farg‘ona tumani	4 800	2 543	2 257	1 200	762	438				20	110	120	80	80	39	41	320	159	161	250	124	126	220	110	110	2 600	781	1 819	1 000

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
4-ilova

2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari



Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
5-ilova

2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:											
			Doimiy	Mavsumiy	Uy-joy qurilishi	Shundan		Sanaot korxonalar qurilishi	Shundan		Ijtimoiy ob’yektlar qurilishi	Shundan		Avtomobil va temir yo‘l qurilishi	Shundan	
						doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy		doimiy	mavsumiy
1	Farg‘ona tumani	**615**	**210**	**405**	*470*	*153*	*317*	*70*	*25*	*45*	*43*	*17*	*26*	*32*	**15**	**17**

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
6-ilova

2024 yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning maqsadli ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	Jami banlik xizmatlarini ko‘rsatish	*jumladan:*						
			Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	*Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish*	*Ishga joylashtirish*	**Subsidiyalar ajratish***	*shundan:*		
							Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan	*Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan*	*Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan*
jami		**3 228**	**865**	**693**	**1 272**	**398**	**26**	**40**	**332**
1	Farg‘ona tumani	**3 228**	*865*	*693*	*1 272*	**398**	*26*	*40*	*332*

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
7-ilova

2024 yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Mas’ul bank	Hududlar	Jami	*shundan,*			
				o‘zini o‘zi band qilish hisobiga	yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga	yangi korxonalar hisobiga	Dehqon xo‘jaliklari hisobiga
Jami			10 460	3 360	500	400	6 200
1	Biznesni rivojlantirish banki ATB	*Farg‘ona tumani*	*10 460*	*3 360*	*500*	*400*	*6 200*

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
8-ilova

2024 yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari

mln.so‘mda

T/r	Hudud nomi	Jami	*shundan,*		
			Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi	**Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi**	**Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi**
1	Farg‘ona tumani	*2 472*	*2 089,2*	*224*	*159*

Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashining
2024-yil 27-fevraldagi
VI-79-16-11-163-K/24-son qaroriga
9-ilova

Farg‘ona tumanida 2024 yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida tasdiqlanishi

№	Tuman (shahar) nomi	Yaratiladigan ish o‘rinlari yo‘nalishi	Ish o‘rinlari jami	*shu jumladan*															
				1-chorak	*shundan*			2-chorak	*shundan*			3-chorak	*shundan*			4-chorak	*shundan*		
					yanvar	fevral	mart		aprel	may	iyun		iyul	avgust	sentyabr		oktyabr	noyabr	dekabr
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1	Farg‘ona tumani	**JAMI**	**20 537**	**1 282**	**429**	**437**	**416**	**10 922**	**3 617**	**3 871**	**3 434**	**5 931**	**2 772**	**1 825**	**1 334**	**2 402**	**946**	**802**	**654**
		Investisiya loyihalari	**1260**	**227**	*72*	*75*	*80*	**409**	*145*	*134*	*130*	**313**	*104*	*104*	*105*	**311**	*102*	*104*	*105*
		Xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik	**4800**	**652**	*270*	*235*	*147*	**1 256**	*418*	*420*	*418*	**1 635**	*540*	*551*	*544*	**1 257**	*471*	*428*	*358*
		Qishloq ho‘jaligi	**13 862**	**262**	*40*	*80*	*142*	**9 065**	*2 990*	*3 253*	*2 822*	**3 824**	*2 075*	*1 117*	*632*	**711**	*321*	*234*	*156*
		Qurilish	**615**	**141**	*47*	*47*	*47*	**192**	*64*	*64*	*64*	**159**	*53*	*53*	*53*	**123**	*52*	*36*	*35*